

HUMOYUNGA XAT KELDI

Ushbu sonda:

USTOZGA
EHTIROM

2-bet

NAMANGANDA
YANGI
MAKTAB

3-bet

OFARIN
SENGA.
YURTIM
O'G'LONI!

4-bet



Sh. MAXMADIYEV olgan surat

Yaqinda FIDE Prezidenti Kirsan Ilyumjinovdan yurtimizning kelajagi porloq, yosh va umidli shaxmatchisi Humoyun Bekmurodovning nomiga maktub keldi. Quvonarlisi, mazkur nomada 6 yoshli iqtidor egasining dunyodagi eng yosh sport ustaligiga nomzod sportchi bo'lgani munosabati bilan tabrik yuborilgan.

(Davomi 7-betda)

Serobiddin ISMOILOV,
Andijon viloyati Xalq ta'limi
boshqarmasi boshlig'i

ISTE'DODLAR MAMLAKATI

Istiqlol yillarida mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh o'g'il-qizlarimiz iqtidorini ro'yobga chiqarish, ularni shu yurt, shu millat taqdiri bilan yashaydigan yetuk insonlar etib kamolga yetkazish borasida ibratli ishlar amalga oshirildi. Bugun O'zbekistonning qay go'shasiga bormang, yangidan bunyod etilgan zamonaviy va muhtasham sport inshootlari, ta'lim maskanlari, go'zal bog'-u rog'larni ko'rib, aqlingiz shoshadi. Bunday ulkan o'zgarishlar o'tgan 25 yil oralig'ida sodir bo'lganiga hech bir insonning ishongisi kelmaydi. Quvonarlisi, bunday yuksak g'amxo'rliklarga javoban farzandlarimiz ham ta'lim, sport va musiqa sohalarida yuksak yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda.



Shuni faxr bilan ayta olamanki, ana shunday umidli yoshlar orasida andijonlik iqtidor egalari ham talaygina. Viloyat o'quvchilari Respublika va xalqaro musobaqalarda, fan olimpiadalarida, san'at festivallarida munosib ishtirok etib, yurtimiz chinakam iste'dodlar mamlakati ekanini butun dunyoga namoyish etishmoqda. Bularning bari mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik-oso-yishlilik tufaylidir.

Tilagim, ona O'zbekistonimizga hech qachon ko'z tegmasin! Yangi boshlangan o'quv yili barcha o'quvchilarga omad va zafarlar olib kelsin!

MUSTAQIL YURT IJODKORLARI

O'zbekiston davlat san'at muzeyida
tashkil etilgan navbatdagi ko'rgazma ana
shunday nomlandi.



Ko'rgazma O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasini yodga olish bilan ochildi. Davlatimiz rahbarining san'atga bo'lgan e'tibori, ayniqsa, mo'yqalam sohiblarining o'z qobiliyatlarini to'la namoyon etishlari, erkin va samarali ijod qilishi yo'lida keng imkoniyatlar yaratib berganligi alohida ta'kidlandi.

Mamlakatimizning

Istiqlol yillari turli sohalarida qo'lga kiritgan yutuqlari, yurtimiz hayotidagi o'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi Akmal Nuriddinov, Anvar Mirsoatov, Rahim Ahmedov, Orif Muinov, Dilorom Mamedova muallifligidagi rangtasvir asarlari ko'rgazmaga tashrif buyurganlarga manzur bo'lmoqda.

**Xurshida
SULAYMONOVA**

USTOZGA EHTIROM

Ustoz... Dunyoda bu kalomdan-da muborak ne bor?! Inson kamoloti yo'lida ota-ona qatorida turuvchi ulug' zot ham u. Uning har bir so'zi hikmat, bosgan hayot yo'li ibrat.

Hayot maktabida Ustoz degan mo'tabar unvonga sazovor bo'lganlardan biri Huri Soliyevadir. Muallima Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanidagi Rovatak mahallasida tavallud topgan. Tumandagi 16-umumta'lim maktabini tamomlagach, u Respublika xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida, 1981-yil Nizomiy nomidagi TDPUning boshlang'ich ta'lim fakultetida o'qidi. Huri opa o'qish barobarida, o'zi o'qigan maktabda faoliyatini davom ettirdi.



Izlanuvchan pedagog innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirdi. Har bir mashg'ulotni turli qiziqarli o'yinlar asosida tashkillashtirishga intilgan muallima, boshlang'ich sinflarda o'qitishning samarali usullarini ta'limga joriy etdi. Uning ish tajribasi nafaqat tumanda, balki viloyat, Respublika miqyosida ommalashtirildi.

Mahoratli pedagogning sa'y-harakatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni, «Shuhrat» medali sohibi Mustaqilligimizning 25 yilligi arafasida «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» unvoni bilan mukofotlandi.

Ustoz haqida so'z yuritar ekanman, shu kezda tilimga ushbu satrlar quyilib keldi:

**Yillar suronida charxlanar umr,
Tarbiyat bog'ida bog'bonsan abad.
Sen so'nmas yog'dusan, charaqlagan nur,
Har so'zi bir maktab, mo'tabar ustod!**

N. QIDIRALIYEV

A'LO O'QISHGA VA'DA BERAMAN!

**Tong otdi. Bugun erta uyg'ondim. Quvonchim ichimga sig'maydi.
Negaki, endi men 1-sinf o'quvchisiman. O'yijonim nonushtaga
«Bahodirlar bo'tqasi»ni tayyorlabdilar. Bugungi nonushta har
doimgidan ham mazali tuyuldi.**

Maktab hovlisi. Voy-bo', buncha o'quvchilar ko'p bo'lmasa... O'yijonim qo'limgan yetaklab, o'qituvchiga topshirdilar. Qanday yaxshi: ustozim Marhabo opa ham o'yijonim singari juda chiroyli va mehribon ekan!

Maktab hovlisi o'quvchilar bilan to'ldi. Barcha baravariga O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini kuylashdi. Bog'chadalik paytimda yod olganim uchun men ham jo'r bo'dim. So'zga chiqqanlar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning amalga oshirgan ishlari haqida aytishdi. Har birimizga Prezident sovg'asi berishdi.

Sinf xonasi. Biz endi 37 nafar o'quvchi

bir sinfda o'qir ekanmiz. Ustozimiz Marhabo Hikmatova bizlarni birma-bir tanishtirdi. O'sha kuni Javohir, Bahrom, Iskandar, Marjona va Sevinch bilan o'rtoq bo'lib oldim. Bo'yim boshqalardan ko'ra balandroq bo'lgani uchun orqa qatordagi partaga joylashdim.

Olgan sovg'amiz naq xazinaning o'zi ekan! Sumkam ichida o'qish uchun kerak bo'ladigan barcha darsliklar-u o'quv qurollari bor ekan.

Biz a'lo baholarga o'qishga va'da beramiz!

**Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi
294-umumta'lim maktabi 1-«B» sinf
o'quvchisi Abdulloh Baxtiyrovning
so'zlarini oqqa ko'chiruvchi
NURBEK**



NAMANGANDA YANGI MAKTAB

**Namangan shahridagi 50-umumta'lim maktabi o'quvchilari
2016-2017-o'quv yilini yangi maktabda boshlashdi.**

– Maktabimiz 1200 o'ringa mo'ljallangan mo'lib, 1 ta 12x24 metr hajmdagi sport zali, 120 o'rinni oshxona va 150 o'rinni faollar zali mavjud. Jamoamizda 60 nafar malakali pedagoglar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib kelmoqdalar. Hozirgi kunda bu yerda 1117 nafar o'quvchilar tahsil olmoqda, – deydi Nasiba opa.

«Bilimlar kuni»da viloyat hokimi Xayrulla Bozorov, Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Vahobjon Rajapovlar maktabga ilk qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchilariga kelajak ularning qo'lida ekanligini, barchaning ularga ishonchi yuksakligini yana bir bor ta'kidladilar.

Ayniqsa, 9-«B» sinfida maktabning rus tili fani o'qituvchisi Iroda Saidxo'jayevaning yurt-boshimizning o'chmas xotirasiga bag'ishlangan «Xotira darsi» mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Mustaqillikka erishilgan ilk yillardan boshlab 25 yil davomida Yurtboshimiz qilgan ishlari ha-



– Maskanimizdagi ilk saboqlar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning yorqin xotirasiga bag'ishlandi. «Xotira darslari»da mamlakatimizda qisqa davr ichida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar, sport, madaniyat qo'ying-chi, barcha sohada erishgan yutuqlarimiz haqida so'z bordi, – deydi ta'lim maskani rahbari Nasiba opa Karimova.



qidagi slaydlar namoyishi barchani to'liqlantirib yubordi.

Bu jamoada fidoyi ustozlar talaygina. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari Ra'no Lutfullayeva, Madina To'raxo'jayeva, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Ma'mura Sayfiddinova, No'monjon Qurbonov, matematika fani o'qituvchisi Muhayyo Hakimova, o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Rahbarxon Shomirbayeva hamda ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Rustamjon Qosimovlar shular jumlasidandir.

– Barcha qulayliklarga ega bo'lgan ushbu maktab menga

juda yoqdi. Men bu sharoitlarga javoban bor kuch-g'ayratimni faqat yaxshi o'qishga sarflashga so'z beraman, – deydi 9-«A» sinf o'quvchisi Abdulhafiz Tohirjonov.

– Maktabimizning ochilish marosimida so'zga chiqqanlarning gaplarini tinglab, shunday yurt farzandi ekanligimdan faxrlanib ketdim, – deydi 9-«B» sinfidan Madina Zoidova.

Ushbu ta'lim maskanidagi o'quvchilarning har biri bugun yurt kelajagi va ravnaqiga daxldorlik hissi bilan yashashga, salohiyatli, bilimdon bo'lishga bel bog'lashgan.

Ozoda TURSUNBOYEVA

MUQADDAS VATANIM!

Assalomu alaykum, hurmatli gazeta tahririyati xodimlari!

Men yurtimizning chekka hududlaridan birida yashashimga qaramay, tumanimiz, mahallamiz kundan-kunga chiroy ochmoqda. Bunyodkorlik, obodonchilik ishlari avjida.

Zero, yurtimizning har bir go'shasi gul-lab-yashnamoqda. Bundan har birimizning qalbimiz faxr, iftixor tuyg'ulariga to'ladi.

Shunday muqaddas zaminda tug'ilib, voyaga yetayotganimdan xursandman. Vatanimga bo'lgan mehr-muhabbatim yuragimda jo'sh urib, she'rga ko'chadi.

**Hurriyat tonglari otmoqda bugun,
Zaminni yoritgan quyoshsan, Vatan.
Qalbimda jo'sh urar faxrlar bugun,
Porloq kelajakka yo'ldoshsan, Vatan!**



**Xurshida ABDOJABBOVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 7-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi**

IFTIXORIM, G'URURIM O'ZING

**Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda keng ko'lamli bunyodkorlik
ishlari amalga oshirilmoqda.**

Biz yoshlar mana shunday ravnaq topib borayotgan jonajon yurtida yashayotganimizdan faxrlanamiz.

**Olam ichra tengsiz davronim,
Iftixorim, g'ururim Vatan!
Tinchliksevar O'zbekistonim,
Taqdirimsan, baxtimsan, Vatan!**

**Maftuna RAHMATULLAYEVA,
O'zMU qoshidagi akademik litseyning 3-bosqich o'quvchisi**

DOIM IZLANISHDAMAN

**«Jurnalistik kasbi insondan o'ziga nisbatan talabchanlikni, o'z
ustida ko'p ishlashni, qat'iyatlikni talab qiladigan kasblar sirasiga
kiradi. Journalist ko'p narsani bilishi, zukko, topqir va qiziquvchan
bo'lishi lozim», deydi ustozim Rixsi opa Najimova.**



Har gal ularning oldilariga borganimda, menga turli topshiriqlar berib, o'sha mavzuni keng yoritib kelishimni talab qiladilar. Men esa izlanib, kitoblar o'qib, topshiriqni a'lo darajada bajarishga harakat qilaman. «Mahalla» telekanali orqali namoyish etiladigan «Yon qo'shnim – jon qo'shnim» ko'rsatuvini birgalikda olib boramiz. Ular matn o'qishimdan tortib, kamera oldida o'zimni tutishimgacha nazorat qilib turadilar. Ko'rsatuv olish jarayonida turli oilalarda, har xil insonlar bilan uchrashishga, suhbatlashishga to'g'ri keladi. Rixsi opa darrov menga yuzlanib, hayajonlanmaslikni, bosqlik bilan savol-javob qilishimni tayinlaydilar. Ko'rsatuv jonli va tabiiy chiqishi juda muhim, deydi. Shu bois ham doim o'z ustimda ishlab, keyingi ko'rsatuvlarga mavzu tanlab, ustozimni yo'riqnomalarini bajaraman. Xullas, doim izlanishdaman.

**Maftuna SIROJIDDINOVA,
TIMI qoshidagi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi**

XXXI yozgi Olimpiya o'yinlari qizg'in borayotgan kunlarning birida yurtimiz sha'nini himoya qilishga bel bog'lagan, shijoatkor bokschi Murodjon Ahmadaliyev xonadonida mehmon bo'lish baxti bizga nasib etdi.

OFARIN SENG, YURTIM O'G'LONI!

Tengdoshlariga qaraganda an-chagina sho'x Murodjon bolalik chog'larida noq sportga o'zga cha ixlos qo'ydi.

Otasi Qahhor aka o'g'lini ishonch bilan taniqli bokschi Ilhom Mirzaxolov rahbarligidagi boks to'gariga yetaklab bordi. Ilhom aka esa endigina 2-sinfda o'qiyotgan Murodjonni to'garakka qabul qilgisi kelmadi. Murodjon mashg'ulotga hammadan oldin kelar, bolalar yig'ilguncha terlab-pishib mashq



Chust shahridagi fayzli xonadon sohiblari Qahhorjon Ahmadaliyev va Oyshaxon Fayozova elning nazariga tushgan fidoyi muallimlardir.

jarayonida g'alabalar salmog'i yanada ortdi. Jismoniy tarbiya institutidagi saboqlar esa undagi o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamladi. O'tgan yili Qatar davlati bilan poytaxti Dohada bo'lib o'tgan jahon chempionatidagi kumush medal unga Braziliyadagi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish huquqini berdi.

Xonadon sohiblari bilan uzoq gurgunlashdik. Qahhor akaning har bir musobaqa oldidan o'g'liga: «Raqibingni doim hurmat qil. Uni har qachon o'zingdan baland bil. Garchi undan bir necha bor ustun kelgan bo'lsang ham, hushyorlikni qo'ldan chiqarma», degan o'gitlaridan ajib hikmat tuygandek bo'ldim. Bu yakkakurashning bir necha turlari bo'yicha ko'plab yutuqlarga erishgan otaning hayotiy tajribalari mahsuli edi.

Murodjon, avvalo, otasi, qolaversa, jonkuyar ustozlari o'g'liga amal qilayotgani shubhasiz. Olimpiyadagi bronza medal ham bundan dalolat beradi. Undagi shijoat, o'ziga bo'lgan ishonch uni yanada yuksaklarga ko'taradi.

Navbatdagi safarim chog'i Namangan viloyatining barcha tumanlaridagi gavgum joylarda Olimpiya o'yinlari sovrindori Murodjon Ahmadaliyev siymosiga ko'zim tushib, qalbim g'ururga to'ldi. Surat ustidagi katta harflar bilan bitilgan «Ofarin senga, yurtim o'g'loni!» degan so'zlar barchaning havasini uyg'otardi.

Yusuf ABDULLAYEV



qilardi. Uning bu fazilati murabbiy nazaridan chetda qolmadi. Otasi-ga esa, «Bu boladan bir narsa chiqadi», dedi ishonch bilan.

Ota o'g'lining serharakatligidan quvonib, hovlining o'rtasiga qum to'ldirilgan qoplar o'rnatdi. Endi ota-bola erta tongda qoplarni mushtlab mashq qila boshladilar. Ayni o'sha kezlar Murodjonning hayotida ajoyib voqea yuz berdi. Ularga qo'shni bo'lib ko'chib kelgan, boks bo'yicha tajribali murabbiy Qobiljon Karimov qopni tinimsiz mushtlayotgan bolaga havasi kelib, uzoq tikilib qoldi. Sal o'tib, uni shogirdlikka qabul qildi. Mashqlar jarayonida o'ta qattiqqo'l bu murabbiy shogirdining maktabdagi baholarini ham kuzatib bordi. Shahardagi 3-umumta'lim maktabining 4-sinfida o'qiyotgan yosh bokschi turli musobaqalarda g'alabalarga erisha boshladi. 6-sinfidan keyin Chirchiq Olimpiya zaxiralari kollejidagi tarbiya

O'ZBEKISTON – BAG'RI KENG DIYOR

«O'zbekiston – umumiy uyimiz» deb nomlangan bayram tadbiri poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida bo'lib o'tdi.

Yurtimizda tojik, qozoq, qirg'iz, rus, belorus, koreys kabi turli millat vakillari o'zaro hamjihatlikda kelajagi buyuk Vatanimizning gullab-yashnashi uchun qo'lni qo'lga berib harakat qilishmoqda.



Tadbirda hamjihatlik umum-bashariy qadriyat bo'lib, xalqlar-

ganlarda katta taassurot qoldirdi.

BONU

«TONG YULDUZI» A'LOCHILARI

G'OLIBA

«Tong yulduzi»ning eng faol muxlislaridan biri bo'lgan Sarvaroy NE'MATILLAYEVA Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 5-«G» sinfida o'qiydi. U gazetamizda e'lon qilinayotgan barcha tanlovlarning faol ishtirokchisi.

Kitobni o'ziga eng yaqin do'st deb bilgan qahramonimiz yozgi ta'tilda ko'plab badiiy asar, she'riy kitoblarni miriqib o'qidi. O'ziga yoqqan, qiziqarli 40 tadan ko'proq o'zbek va rus tillaridagi kitoblarni jamlab, uyida mo'jazzgina kutubxona ham tashkil qilibdi.

Sarvaroy shuningdek, sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanadi. Shahar miqyosida o'tkazilgan «Jajji malikalar», «Gimnastrada» musobaqalarida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritibdi.

Rasm chizish – uning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri. Chizgan rasmlari bilan bir necha tanlovlarda ishtirok etgan. Masalan, «Onajonim tabiat» Respublika ko'rik-tanlovining rasm yo'nalishida 1-darajali diplom, «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» va «Boylilikni bolalikdan asrang!» tanlovlarida esa rag'bat-

lantiruvchi o'rinlarni egallab, faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Ayniqsa, «O'zbekiston» telekanalining «Assalom, O'zbekiston!» ko'rsatuvida «Ona yurtim manzaralari» rasmlar tanlovida chizgan rasmlarining namoyish etili-



shi unga yanada ilhom bag'ishladi. Quyida Sarvaroyning «Sog'lom bola – boy bola» tanloviga yuborgan ijodiy ishlarini e'tiboringizga havola qilyapmiz.

Dilorom HOTAMOVA

LESSON 104

ETHICS
(Odob)

A man asked Luqmoni Hakim:

– Whom did you learn ethics by?

He answered:

– I learned ethics from untactful man.

– How did you learn ethics from untactful man?

Luqmoni Hakim answered, that he always paid attention to the people attentively, what they said and how they worked, – he added. When he heard a bad word from somebody, he never told that word later, if he saw bad work, he never did it. So he became to a tactful man.

Dictionary: Untactful – odobsiz

To pay attention to – diqqat qilmoq

Sarvinoz NAZAROVA,

the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

LITTLE TRAIN

Dear pupils translate these words and find their synonyms.



Around, reason, control, unify, about, near, cause, drive, take part in, combine, connect, purpose, aim, motive, direct, unite, join, run, handle, participate, be involved, unite, approximately.

AUTUMN ALPHABET GAME

Can you come up with on autumn themed word for each letter of the alphabet?

A	N
B	O
Cloudy	P
D	Q
E	Rain
F	S
G	T
H	U
I	V
J	W
K	X
L	Y
M	Z



Prepared by DINORA

TEST

Put correctly articles instead of points.

1. In ... end we decided not to go to the theatre but to watch television.

- a) the b) this c) an

2. I want to go to the theatre to see performance about ... and the Japanese.

- a) a Japan b) Japan c) the Japan

3. Can anyone give me ... please, because I have fallen over?

- a) a hand b) the hand c) hand

4. He always said that when he grew up he wanted to be ...

- a) Engineer b) a engineer c) an engineer

5. What ... boy.

- a) strange b) a strange c) the strange

6. Tell him ...

- a) truth b) a truth c) the truth

7. Bring ... from the kitchen.

- a) milk b) a milk c) the milk

8. ... is the universal language of the world.


- a) Music b) A music c) The music

Mohira YULDASHEVA



HOW DO THEY FEEL?
(Ular o'zlarini qanday his qilishmoqda?)

Describe with adjectives.



1. Durdona is hungry.



4. Valijon



2. Fozil



5. Mrs Jamila



3. The children



6. Javohir

Kumush TURG'UNOVA,
the pupil of school №54 in O'rta Chirchiq district, Tashkent region

Painter: YOQUBBEK

GO'ZAL MASKANIM

Bog'laringda yayrab
quvnayman,
Gullaringni quchib o'ynayman.
Azizdir tuprog'ing men uchun,
Bag'ringda kuylayman
men bugun.

Go'zalsan, maskanim
tengi yo'q,
Toshkentim orombaxsh
sen o'zing.
Asrayman doimo yurakda,
Dilorom suyukli oy qizing!

Diloromxon SHUKUROVA,
poytaxtimizning Chilonzor
tumanidagi 270-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



ORZULAR USHALSIN

Istiqloq, yo'lingga iqbol to'shalsin,
Go'zal satrlarga qo'shdim nomingni.
Dildagi orzular shodon ushalsin,
Men doim asrayman ulug' nomingni.
Istiqloq tufayli dillarda shodlik,
Istiqboldan erur yurtida obodlik.
Olam uzra nur sochadi mayog'ing –
Yuksaklarda hilpiraydi bayrog'ing.

Guliruxsor RO'ZMATOVA,
Xorazm viloyati, Yangiariq
tumanidagi 3-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi

SAJDAGOHIMSAN, O'ZING

Bahrom AKBAROV

I
Boshimdagi soyabonim,
jon-u jahonim,
Tanamdagi quvvatimsan,
mangu xoqonim.
G'animga bo'y bermagan,
ulug' Sultonim,
Buyuk davlat Yo'l boshchisi –
katta karvonim.
Qaddi mag'rur tog'lar kabi o'ktam,
polvonim,
Yuzlarida mehr balqqan,
toza vijdonim,
Qalbi qaynoq, soddadilim,
nurli ymonim,
O'zbek sha'nin sharafлагan
aziz insonim,
Qalga hurlik ato etgan buyuk
sarbonim –
Jondan suygan Qiblagohim,
Siz Otajonim!..

II
Tong saharlab quyoshni ham uyg'otgan,
Bolishida yulduzlar qo'shiq aytgan,
Oy yuzidan Oy jilvasin yaratgan,
Alla aytib, beshigimni tebratgan,
Ot choptirib, yovni yurtdan quvlatgan,
Jasorati elda doston kuylatgan,
Nola qilsa samoni ham yig'latgan,
Mangu qo'shiq, o'lmas ash'orlar bitgan,
Anbar isi bog'-u rog'ni bo'ylatgan,
Duolari har yurakni titratgan,
Poyingizda Alloh jannat yaratgan,
Jon-suyganim, sajdagohim Onajon!
Otajonim, onajonim – shonim Vatan,
Ko'zlarim qorachig'i – jonim Vatan!

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

SHIFO SO'RAB YIG'LADIK

Mana endi ishlarimiz ham asta-sekin yaxshi bo'lib ketayapti. O'gay akam uch kunda bir marta Beshariq-dagi tuz koniga borib, eshakka yerga tegay-tegay deb qoplarda tuz yuklab keladi. Qishloqma-qishloq yurib, erimmay sotadi. Qo'lida kichkinagina tarozichasi ham bor. Birov bir kosa bug'doy, birov bir kosa un beradi, kimdir tanga, gohi pul ham beradi. Abduxalil ham zo'r. Har kuni dalaga sigirni haydab, qarib qolgan tut daraxtlarni ustiga chiqib, qurib qolgan kallaklarni kesib, o'tin tayyorlab keladi. Hamma uy ishlari menda. Yo'q, maqtanayapti, demang, molning tagini tozalash, hovlini supurish, ovqat pishirish, tez-tez ingillab yig'laydigan singilchamni yupatish uchun ko'chada aylantirib kelish ham mening zimnamda.

Yana eng yomoni hammamizni bit bosib ketgan. Ermatov domla aytishicha, qishlog'imizda 120 ta oila bor, ularning hammasini bit bosgan. Bir kuni sinfimizdagi hamma bolalar qashinishga tushib ket-sa bo'ladimi... Ermatov domla dars-ni to'xtatib mayli, besh-o'n daqiqa qashinib olinglar, deb g'alatiroq jilmayib, keyin Orif, kel bolam, qo'lim kalta, mening ham orqamni bir qashib qo'y, desa bo'ladimi?!

Biroq men hamon Kosib amakiga mahliyo bo'lib yashayman. Amakini sizga ko'p gapirdim. Beli bukr, bir oyog'i cho'loq, qizil shapkali askarlar zambarakdan o'q otganda, o'q to'ppa-to'g'ri kelib, mana shu oyog'ini uzib ketgan ekan. U menga o'xshagan gapga quloq soladigan bolalarni jon-dilidan yaxshi ko'radi. O'zining ikkita o'g'li bedavo qizami-kasaliga chalinib, ketma-ket o'lganidan keyinmi, «Ey cho'loq bandam, mahalla bolalariga etik tikishni o'rgat, qizil shapkali bosqinchilarga qarshi kurashgan yigitlar haqida farqat yaxshi, chiroyli gaplar aytib yurgin, deganmi ishqilib, bolalarni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, meni shunaqangi hurmat qiladiki, shunaqangi e'zozlaydiki, yig'lab turgan

Donoxon singlimni birpas o'ynatay deb chiqsam, darrov yonidagi hech kimga bermaydigan kursisini menga uzatib:

– Ey boyvachcha o'g'lim, qani o'tir, – deydi yumshoqqina qilib.
– Siz otamni tanirimidingiz? – deb men takror-takror so'rayman.

– Tanish gapmi, birga oshiq o'ynab katta bo'lganmiz, – deb qo'yadi u. Keyin menga otam haqidagi qiziq-qiziq voqealarni so'zlab beradi. O'sha gaplarni yana eshitgim kelib, uning oldiga yig'lasa-yig'lamasa ham singilchamni olib chiqave-raman. Asta-sekin bolalar bilan ham o'rtoq bo'lib ketdim. No'mon-jonni qizg'anchiq deyisharkan. Doim cho'ntagida o'rik olib yurarkan-u, hech kimga bir dona bermas ekan. Ergashalini Ergash chatoq, deyishar ekan. Hamisha, «Ariqdan o'tolmadim – chatoq, o'tinni yorolmadim – chatoq, qornim to'yamayapti – chatoq», deyaverarkan. Akromni bobomnikida yurganida ham tanirdim. Nasriddin afandi uning tug'ishgan amakisi bo'lgan ekan. Qachon latifa aytmog'chi bo'lsa, Nasriddin amakim bunday degan, deb gap boshlaydi. Xullas, men dadamni yaxshi ko'rgan usta amaki, yana bir jihatdan o'zimga o'xshab qiziq-qiziq narsalarni aytib yuradigan bolalar bilan juda yaqinlashib ketdim. Kelganimga xursand bo'ldim. Oyijonimning kasali bir baha-na bo'ldi-yu, butun boshli mahalla bolalariga qo'shilib ketdim. Ular bilan bir kuni suhbatlashib o'tirgan edim, Oyshaxon singlim yalang-oyoq, bitta ko'yakda dodlagancha yugurib keldi:

– Akajon, oyijonim o'lib qoldi! – degan vahimali gaplarni aytdi.
To'g'ri. Goho oyijonim dardi og'ir bo'lganida, o'zidan ketib qolardi. Sal o'tmay ko'zlarini yarim ochib, qo'rqmanglar, men tirikman, deb qo'yadi... Endi esa o'libdi. Yo'q, yo'q, deb dodlab yugurdim. Ha... ha, oyijonim behush yotibdi.
– Oyijon! – deya Oyshadan ham battarroq baqirdim. Lovullab turgan

yuziga boshimni qo'ydim... Endi esa uchala singlim ham dodlashga tushishdi. Ovozimiz baland edi, juda baland edi. Hasrat to'la ovozimiz ta'sir qildimi, oyijonim yengil qimir-lagandek bo'ldi, ko'zlari ham yarim ochildi.



TAGOB QISHLOQ ERTAKLARI

– Bolalarim, – dedi-yu jim bo'ldi.
Yana birozdan so'ng:
– Suv, – dedi.
Suv keltirdim.
– Abduxalil qani?
– Dalaga mol boqqani ketgan.
– Abdujalil-chi?
– Beshariqqa tuz olib ketdi.
– Peshonamga ho'l lattani bosinglar. Anya do'xtir, o'ris xolaning uyini bilasanmi?
– Bilaman, oyijon.
– Bilsang, uchib bor.

Shu gaplardan so'ng, singillarimning ovozi ham sal pasaygandek bo'ldi. Sakrab o'rnimdan turdim-da, chindan ham uchib keta boshladim.
– Ey, Xudo oyijonim o'lmasin, singilchamni kim emizadi, kim bizga onalik qiladi, – deb yig'lab boryapman. Urush boshlangan kunlari qishlog'imizga o'ris xola ko'chib kelgan. Ular ikkita edi. Bittasi mana shu Anya xola. Urushda qornidan o'q yeb yaralangan Hamrali akaga tegib birga kelgan. Onasi unga uylanmaysan desa, Hamrali aka unda dunyodan yolg'iz o'taman, degan ekan. Ana shularni o'ylab, uchib boryapman. Duolar o'qib, onajonim

o'lmasin, Xudojon, onamni saqla, deb yolvorib boryapman.

Do'xtir opa uyd ekan. Oyimning kasalini bir amallab tushuntirdim, o'layapti, o'layapti, deb qo'rqitdim. O'ris xola o'rischa gapiryapti, men o'zbekcha gapirayapman, bir-birimizni yaxshigina tushunayapmiz.

– Ona, Sora buvi kasal? – deb so'raydi.

– Ha, ona Sora buvi kasal, – q deyman.

– Taqachining xotini?

– Ha, taqachining xotini.

– Men uyiga ilgari bor-gan.

– Ha, ikki marta bor-gan.

– Emlagan.

– Ha, emlagan.

– Qiz tuqqan?

– Ha, qiz tuqqan.

– O'sha qizni men tuqqan.

– Yo'q, yo'q, siz emas oyijonim tuqqan.

– Yo'q, baribir o'sha qizni men tuqqan.

– Sen tuqqan, oyijonim katta qil-gan.

Ana shunday chala-chulpa so'zlarni bir-birimizga rosa aytdik. Do'xtir opa hamma gapni tushundi. Yugurib, ichkari uydan velosiped yetaklab chiqdi-da, sakrab minib, ketdik, dedi. Tez haydar ekan. Yugurayapman, lekin orqada qolib ketayapman. Baribir oyijonim oldi-ga mendan oldin yetib bordi. Oyijonimning boshiga baland yosti-q qo'yibdi. Bechora ko'zlari yarim ochiq, kulimsirab turganga o'xshay-di. Ketma-ket qo'lga, yonboshiga igna sanchdi. Yana to'xtamay ga-pirib turibdi.

– Choy qo'ysin, oyoqqa issiq suv bersin... Vahima qilmasin, – degan gaplarni aytayapti. Chinqirib yig'layotgan Donoxonni qo'lga olib, silkitib-silkitib yupatgan bo'ldi. – Bu bola sut kerak, ko'p-ko'p sut kerak, onada sut yo'q, – degan gaplarni ham aytayapti. Endi oyijonimning ko'zlari yana ham kattaroq ochilganday bo'ldi, ham-mamizga bir-bir kulimsirab qarab chiqqandek bo'ldi.

(Davomi bor)

QIZLARIMIZNING SHASHTI BALAND

Og'ir atletika sport turi haqida so'z ketganda, ko'pchilik uni o'g'il bolalarning mashg'uloti ekani haqida ta'kidlaydi. Lekin keyingi yillarda yurtimizda ushbu murakkab sport turi bilan qizlar ham muntazam shug'ullanib, qator yutuqlarni qo'lga kiritib kelishmoqda.

Yaqinda og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston xotin-qizlar terma jamoasi Iordaniya-da o'tgan II Afro-Osiyo chempionatida 10 ta oltin, 3 tadan kumush va bronza medallarini qo'lga kiritib, yakunda umum-jamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

Mohir sportchimiz Marina Sisoyeva vazni 53 kilogrammgacha bo'lgan og'ir atletikachilar bahsida bir yo'la 3 ta oltin medalni qo'lga kiritdi. Uning muvaffaqiyatli ishtiroki barcha yig'ilganlarga olam-olam zavq ulashdi. Shuningdek, vazni 58 kilogrammgacha bo'lgan qizlar bellashuvida Muattar Nabiyeva



raqibalarini katta ustunlik bilan ortda qoldirib, oltin medal egasiga aylandi.

Ayniqsa, 69 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar bahsi keskin va murosasiz tarzda o'tdi. E'tiborlisi, g'oliblik asosan ikki nafar sportchi qizimiz o'rtasida kechdi. Yakunda biroz chaqqonroq harakat qilgan Manzura Mamasoliyeva bir yo'la 3 ta oltin, Gulnoza Ahmadova esa 3 ta kumush medalga sazovor bo'ldi.

Qolaversa, o'z vazn toifalarida Omadov Otaqo'ziyeva oltin, Dolera Davronova 3 ta bronza medal egasiga aylandi.

HUMOYUNGA XAT KELDI

(Davomi. Boshi 1-betda)

Bu xabarni eshitgan yosh shaxmatchimizning ota-onasi, yaqinlari, ustozlarining boshi osmonga yetdi.

Shu o'rinda aytish kerakki, Istiqlol yillarda shaxmat yurtimizda eng taraqqiy etgan sport turlaridan biriga aylandi. Farzandlarimizning ushbu sport bilan shug'ullanishi, o'z iqtidorini namoyon etishi uchun humoymiz tomonidan barcha shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berildi. Natijada, yosh avlod orasidan Javohir va Islombek Sindorovlar, Nodirbek Abdusattorov, Sarvinoz Qurbonboyeva, Irina Gevorgyan, Nodira Nodirjonova kabi jahon va Osiyo chempionlari, turli nufuzli xalqaro musobaqalar g'oliblari yetishib chiqdi. Endi ular bilan bir safda poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 154-maktabgacha ta-

lim muassasasi tarbiyalanuvchisi Humoyun Bekmurodovning nomini ham tilga olsak arziydi.



— Shaxmat jon-u dilim. Bo'sh vaqtlarimda ustozim Sirojiddin Zayniddinov bilan birga turli yurishlar ustida ishlaymiz. Kelajakda Rustam Qosimjonov singari jahon chempioni bo'lmoqchiman, — deydi Humoyun.

Biz jaji shaxmatchimizga orzulari ijobat bo'lishiga tilakdoshmiz.

Sa'dullo TURSINOV

HAFTANING MUHIM XABARLARI

Mamlakatimizda yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol etib tarbiyalash, yoshlar o'rtasida sport turlarini keng ommalashtirish,

o'quvchilarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuksak samaralar berayotir. Davlatimiz

Mustaqilligining 25 yilligi arafasida sportchi-yoshlar ixtiyoriga topshirilgan sport inshootlari so'zimiz isbotidir.

O'tgan haftada amalga oshirilgan xayriy ishlardan biri Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida zamonaviy yopiq suzish havzasi foydalanishga topshirilishidir. Bugungi kunda tuman bolalar va o'smirlar sport maktabida 1250 ga yaqin tarbiyalanuvchi 13 sport turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Maskan tasarrufida faoliyat boshlagan va 200 nafar yoshga mo'ljallangan yopiq suzish havzasi yangi iste'dodlarni kashf etishda muhim omil bo'lishi, shubhasiz.

Farg'ona viloyatining Farg'ona tumanida yangi sport-texnika klubi ish boshladi. O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti tuman kengashi barpo etgan o'quv klubda harbiy-texnik mutaxassislar tayyorlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, Istiqlol g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish maqsadi ko'zda tutilgan. Klubning o'quv xonalari zamonaviy o'quv-texnika vositalari bilan jihozlanib, «V» va «VS» toifadagi haydovchilar tayyorlash kursi faoliyati uchun zarur sharoit yaratilgan.

Shukrulla G'ULOM

HAVAS QILSA ARZIYDI

Sinfodoshim Gulnoza Jo'rayeva va uning oila a'zolarini sog'lom turmush tarafdorlari, deyish mumkin. Gulnoza hatto yomg'irli, qorli kunlarda ham dadasi, oyisi, singlisi bilan tongda sport maydonchasida badantarbiya bilan shug'ullanishadi.

Onasi — Dilnoza opa maktabimizda o'quvchi-qizlarga mehnat fanidan saboq beradi. Ustozimiz ta'lim maskanimizda tashkil etilgan voleybol bo'yicha o'qituvchilar terma jamoasi a'zosi. Singlisi Malika ham oila a'zolaridan qolishmagan holda shahrimizdagi «Neptun» suv havzasida suzish sirlarini o'rganib kelmoqda. Sinfimizda ana shunday sportchilar oilasi borligidan barchamiz faxrlanamiz. Zero, sport — sog'lom hayot garovi.

Sitora NAPASOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Buxoro viloyati, Kogon shahridagi «Yoshlik» sport majmuasiga qarashli bolalar va o'smirlar sport maktabi nafaqat respublika miqyosida, balki butun jahonda mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilishga qodir mahoratli sportchilarni tayyorlab berayotgan maskanlardan biridir. Negaki, bu yerda malakali pedagog-murabbiylar to'plangani yutuqlar omili bo'lmoqda.

IQTIDORLILAR MASKANI

Tajribali ustozlardan biri Istam Kabinov bir necha yildan beri boks bo'yicha murabbiylik qilib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalab kelmoqda. Bu maktab tarbiyalanuvchilari viloyat, respublika chempionatlarida yuqori o'rinlarni egallab kelishmoqda. Ana shunday shogirdlardan biri yaqinda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiya o'yinlarining oltin medal sohibi Shahobiddin Zoirov ham ushbu maktabda boks sirlarini o'rgangan.

Ayni paytda sport maskanining boks seksiyasida 110


dan ziyod yoshlar sport bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Shavkat KAZAKBAYEV



Oftobro'y bo'lgani uchun darvoza oldiga so'ri qilganmiz. Ikki tomoniga o'tgan yili tog'uzum ekan edik. Yoz bo'yi buvam bilan parvarish qildik.

G'o'ra tukka-nida bir marta, no'xatday bo'lga-nida ikkinchi marta oltingugurt sep-dik. Ikki-uch marta suvga qondirdik.



Abdulahay NOSIR

BIR BOSH UZUM

(Hikoya)

Qarang-a, parvarishimiz zoye ketmadi. Chunonam hosil qildiki, qarab to'ymaysiz.

Sentyabrga borib oftobro'y joylar sarg'aya boshladi. Tatib ko'rib, buvam:

– Uzishga shoshmanglar. Yana biroz so'rda tursin, bitta ayozni ko'rsa, novvot bo'lib ketadi. Keyin qo'ni-qo'shnilar ham bir bosh, bir bosh chiqaramiz, savob bo'ladi.

Buvamning gaplariga ko'ra uzumni ko'p uzmadik. Aytganlaridek, bir ayozdan keyin chunonam sarg'ayib oltinga aylanib ketdiki, maza ustiga maza kirib, uning bir donasini og'zingizga solsangiz, karsillab, xuddi bol shimgandek bo'lasiz. Oldini nonush-taga uzib, har kuni bitta-bitta qo'shniga bir-ikki boshdan chiqara boshladik. Qo'shnilar ham xursand, buvam bilan meni alqashadi.

Bugun ham erta bilan eshik oldiga ikki-uch bosh uzum uzgani chiqdim. Chiqdim-u kayfiyatim buzildi. Uzunning bitta katta novdasi so'ridan tortib olingan, ikki-uch bosh uzum yer bilan bitta bo'lib yotardi. Shu payt:

– Ha, Abduazim, – degan ovozdan boshimni ko'tardim. Qarasam, ikki eshik naridagi qo'shnimiz Rahim menga qarab kulib turibdi:

– Ha, o'rtoq, – dedi u yana ham battaroq iljayib, – uzum uzaman, deb tushirib yubordingmi?

– E, kel, o'rtoq, – dedim qadimni rostlab, – ko'rmaysanmi, kimdir bir-ikki shingil yeyman deb, shuncha uzumni nobud qilibdi. So'rasa, o'zim uzib berardim.

Rahimning rangi o'zgarib, yuzlari qizarganday bo'ldi. O'zini sal orqaga olib, nari ketdi.

– Shoshma, Rahim, – dedim ortidan.

Rahim to'xtab, o'girilib qaradi:

– Rahim, bugun sizlarga uzum chiqarmoqchiydik, shuni ola ketgin.

U indamadi, yov quvgandek ildam-ildam yurib, keyin uyi tomon yugurib ketdi.

Ortidan hayron bo'lga-nimcha qarab qoldim. Nega shunday qildi, bilimadim... Uni bunday sira ko'rmagan edim-da.

KITOB O'FTOB

Oftobga intiq bashar,
Kimdir oftobsiz yashar.
Kitob – oftob deyishar,
Yur, oftobga chiqaylik!

Olib ilm qudratni,
Quvlab ig'vo-bid'atni,
Olqishlab ma'rifatni,
Yur, oftobga chiqaylik!

Oftobsiz bo'lmas hayot,
Oftob-kitob qo'shqanot,
Bo'lsin ular barhayot,
Yur, oftobga chiqaylik!

Ayubxon MUHAMMADIY

KOPTOK

Koptok, mana ko'rasan,
Mashhur bo'lib ketamiz.
Eng ilg'or raqibni ham
Besh-u nolga yutamiz.

Yumalayver, ko'ngil to'q,
Qo'nib o'tamiz Oyga.
Aylanaver, tengi yo'q,
«Koptok» degan chiroyga.

Niyatim bor, ortingdan,
Shon-u sharafga to'ysam.
To'xtab qolsang gohida,
Ranjima, tepib qo'ysam.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

SUDOKU

3	1		2	4	
	5	4		3	2
2		3	5		1
1	3		4	2	
	2	1		5	3
5		2	3		4

	5	6		2	4
4		3	2	6	
6	2		5		1
	4	2		1	3
1	6		3	4	
2		1	4		6

Bo'yiga ham, eniga
ham 1 dan 6 gacha
bo'lgan sonlar
takrorlanmasligi
shart.

Tuzuvchi:
Fayzulla
ABDULLAYEV

KAKAOLI SHIRINLIK

pazanda qizga!



Kerakli masalliq: 8 dona tuxum, 1 oshqoshiq kakao, 1 ta plitka shokolad, un, shakar.

Kremiga: 1 ta jigarrang quyultirilgan sut, 200 gramm sariyog'.

Tayyorlanishi: 8 dona tuxumning oqi ko'pirtirilib, shakar, un, kakao aralashtiriladi, quyulguni-

cha ko'pirtiriladi. 180 darajada qizdirilgan gaz pechida pishiriladi. Biskvit pishgach, krem surtilib, rulet shaklida o'raladi.

Kremi: 1 ta quyultirilgan sutga 200 gramm sariyog' aralashtiriladi.

Shirinligimiz ustiga qirg'ichdan o'tkazilgan shokolad sepi, bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

12-sentyabr 2016



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Svetlana INOMOVA,
Bahodir GANIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Jamoliddin
ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-
dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.
Manzili: Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 26278
Buyurtma – S 6965

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08